



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

AHOLIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNING HUDUDIIY JIHATLARI

Komilova Nilufar Karshiboyevna

g.f.d., professor

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Yusupov Xasanboy Baxodir o'g'li

magistr

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy jihatlarini tahlil qilish orqali shifoxona, shifoxona o'rinlari, tibbiyot va o'rta tibbiyot xodimlarining aholi soniga nisbatan ko'rsatkichlari tahlil qilib o'tilgan. Kasalxonalar, shifokor mutaxassislar bilan ta'minlanganlik holatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Aholi salomatligi, tibbiyot, xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmat, o'rta tibbiyot xodimlari, shifokorlar soni, akusher-ginekologlar, jarrohlar, sanitar-epidemiolog.

TERRITORIAL ASPECTS OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION

Komilova Nilufar

Yusupov Hasanboy

Abstract: This article analyzes the regional indicators of medical services to the population by analyzing the performance of hospitals, hospital beds, medical and secondary medical staff in relation to the population. Attention is also paid to the provision of hospitals with medical staff.

Keywords: population health, medicine, services, medical service, nurses, number of doctors, obstetricians-gynecologists, surgeons, sanitary-epidemiologist.

Bugungi kunda jahonda pandemiya oqibatlarini milliardlab insonlarning hayotini vayron qildi va global iqtisodiyotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi global iqtisodiy inqirozni 2009-yildagidan ham og'irroq bo'lishini prognoz qilmoqda. Hozirgi vaqtda COVID-19 bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy zarbalar, jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi uzilishlar, xomashyo narxlarining pasayishi, moliya bozoridagi o'zgaruvchanlikning o'sishiga sabab bo'lmoqda va boshqa omillar ta'sirida vujudga kelgan xatarlar xavfini yanada kuchaytirmoqda. So'nggi yaqin kunlarda pandemiya holatlari birmuncha susayib iqtisodiyot tiklana boshladi [2].

Ma'lumki, mamlakatning kelajagi, kuch-qudrati, jahon hamjamiyati oldidagi obro'-e'tibori va salohiyati fuqarolarning sog'ligi, moddiy-ma'naviy barkamolligiga bog'liq. Shu bois, hukumatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, xalq salomatligini yaxshilash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sanitariya va profilaktika xizmatini kengaytirishga doir siyosat olib bormoqda va bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Ushbu qarorlardan asosiy maqsad – aholi salomatligini tubdan yaxshilash, joylarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatiga asosiy e'tibor qaratishdan iboratdir [3]. Pandemiya jarayonida ham bu hol yaqqol namoyon bo'ldi. Sog'liqni saqlash tizimi xalq xo'jaligining aholi salomatligini muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi yetakchi tarmog'idir.

Sharq mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda sog'liqni saqlash masalalari uzoq tarixga ega. Movarounnahr va Xurosonda VIII-IX asrlardayoq shifoxonalar uchun maxsus binolar qurilgan. Shifoxonalar XV asrlarda Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda ham mavjud bo'lgan. Ushbu jamoat shifoxonalari "Dor ush-shifo" ("Davolash uylari") deb nomlangan. Manbalarda yoritilishicha, o'sha davrlardayoq shifoxonalar qurilishida joylarning havo, suv va tuprog'iga alohida ahamiyat berilgan [4]. Xususan, mustaqillik yillarida tibbiy xizmat ko'rsatish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmoqda. Biroq respublikamizning ayrim mintaqalarida bu borada hamon muammolar mavjud. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarining hududiy tashkil etilishi shahar va qishloq joylarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shahar joylarda xizmat ko'rsatish muassasalari, avvalo, shaharning katta-kichikligiga, arxitekturasi, shuningdek, yirik sanoat korxonalarining joylashuviga aloqador bo'lsa, qishloq joylarda tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etishda, avvalo, aholining yirik xizmat ko'rsatish markazlarining uzoq-yaqinligiga, transport aloqalarining rivojlanganligiga chambarchas bog'liq (Nazarov M.I., 1996). Darhaqiqat, tibbiy muassasalar joylashuvi va ularni hududiy tashkil etish masalalariga bo'lgan e'tibor sog'liqni saqlash tizimida eng muhim masalalardan biridir. Shuning uchun tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoni doimo qat'iy nazoratni talab etadi [5].

Respublikamiz qo'shni mamlakatlarga nisbatan shifokorlar soni va sifati borasida yomon natijalarga ega bo'lmasa-da, biroq sog'liqni saqlash tizimida ayrim soha mutaxassislarining taqchilligi sezilib qolamoqda. Bugungi kunda jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda onkolog, endokrinolog, venerolog, norkolog mutaxassisliklariga talab tobora ortib bormoqda. Bu esa davr talabidan kelib chiqqan holda bunday soha mutaxassislariga bo'lgan zaruratni yanada oshiradi. Chunki ko'pchilikka sir emaski hozirgi kunda dunyo mamlakatlari orasida aynan shunday mutaxassislarni taqozo etuvchi kasalliklar yil sayin ortib bormoqda.

Respublikamizda alohida mutaxassisliklar asosida shifokorlar taqsimlab ko‘rilsa, ayrim soha vakillarining nihoyatda kamyoblighi ko‘zga tashlanadi (1-jadval). Jumladan, 2000-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda yuqorida nomlari sanab o‘tilgan soha mutaxassislarining kamchiligi qayd etiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2000-yilda har 10 ming aholiga 2,7 nafar stomatologlar to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2020-yilda bu raqam 1,6 ga tushib qoldi. Xuddi shunday pediatriklar ham yildan-yilga kamayib bormoqda. Buning bosh sababi aynan ana shunday soha mutaxassislari bilan bog‘liq kasalliklar salmog‘ining ortib borayotganligidir. 1970–1975-yillarda onkolog yoki norkologlar 0,01-0,02 kishini tashkil qilgan. Zaruriy mutaxassislar sobiq Ittifoqning yirik shaharlaridan chaqirilgan. Bugungi kunda esa bunday sohalar ham birmuncha taraqqiy etib bormoqda [6].

1-jadval

**Shifokorlarning alohida mutaxassisliklar bo‘yicha taqsimlanishi
(har 10 ming aholi soniga ko‘ra)**

	2000	2010	2020
Jami	32,8	28,4	27,0
Terapevtlar	7,8	7,4	6,0
Jarrohlar	3,7	3,4	3,3
Akusher-ginekologlar	5,2	4,4	3,1
Pediatriklar	13,9	13,0	5,2
Oftalmologlar	0,5	0,4	0,5
Otolaringologlar	0,5	0,5	0,5
Ftiziatorlar	0,5	0,4	0,3
Nervpotologlar	0,8	0,7	0,8
Psixiaterlar	0,4	0,4	0,3
Narkologlar	0,1	0,1	0,1
Dermoto-venerologlar	0,5	0,4	0,4
Stomatologlar	2,7	2,3	1,6
Sanitar-epidemiologlar	1,7	1,5	1,4
Rentginolog va radiologlar	0,4	0,4	0,4
Onkologlar	0,2	0,2	0,1

Manba: “Sosialnoye razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane” Stat, sb., 2000, str 70, “Sosialnoye razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane”, Stat. sb., 2010, str 109., 2020

Hozirgi vaqtda jahonda, shuningdek, respublikamiz aholisi eng ko‘p murojaat etadigan tibbiy mutaxassislar: akusher-ginekologlar, jarrohlar va sanitar-epidemiologlar hisoblanadi. Ushbu soha mutaxassislar soni 2000–2020-yillarda tobora kamayib bormoqda (1-jadval). 2000-yilda har 10 ming aholiga 5,2 akusher-ginekolog to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2020-yilda bu raqam 3,1 kishiga tushib qolgan. Ushbu yuzaga kelgan holatni jarrohlar yoki sanitar-epidemiologlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin [7]. E’tirof etish zarurki, shifokorlarning malaka oshirish

jarayonlariga ham alohida e'tibor qaratish o'rinli. Chunki joylarda tibbiy nazoratni yo'lga qo'yish uchun shifokorlar, albatta, o'z bilim va malakalari ustida tinimsiz ish olib borishlari kerak. Shunday qilib, respublikamiz hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatida farqlar mavjud. Bunday hududiy tafovutlarni inobatga olish respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, turli viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yaratish va davlatimizning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda respublika sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari etib aholiga, ayniqsa, qishloq joylarda, yuqori sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishida keng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash, fuqarolarga kasalliklar profilaktikasi va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha diagnostika hamda ambulatoriya-profilaktika muassasalarining ish samaradorligini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu hol esa o'z navbatida, aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Syeli v oblasti ustoychivogo razvitiya. Syel 8: Sodeystviye postupatelnomu, vseoxvatnomu i ustoychivomu ekonomicheskomu rostu, polnoy i proizvoditelnoy zanyatosti i dostoynoy rabote dlya vsej. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/economic-growth/>
2. Nilufar K.Komilova, Ibragim X. Mamatkulov; The incidence of covid-19 in Uzbekistan geographical aspects. *Eas J Dent Oral Med*; Vol-3, Iss-2, (Mar-Apr, 2021): 31-37.
3. Komilova N.Q., Ravshanov A, Muhammedova N, Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2019-10 b.
4. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiasining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: Sharq, 2016-5 b.
5. Yusupov X.B. O'zbekiston shahar hudularida tibbiy xizmat ko'rsatish va aholi salomatligi. O'zbekistonda turizm va rekreasiyani rivojlantirishning deografik muammolari va imkoniyatlari respublika ilmiy-amaliy konfirensiya materiallari. Qarshi -2020 yil. 279-281 betlar.
6. Yusupov X.B. O'zbekistonda aholi salomatlik darajasi. Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va inovasiya Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy konfirensiya materiallari. Toshkent-2021 yil 235-237 betlar.
7. «Sotsialnoye razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane» Stat, sb., 2000, 2010, 2020.